

**NABAVIY SIYRAT BORASIDAGI MANBALAR ORASIDA “AL-MAG‘OZIY”  
ASARINING MAZMNI VA TUZILISHI VA O‘ZIGA XOS AHAMIYATI**

**Jambilov Mansur Rasuljonovich**

*“Islom tarixi va manbashunosligi IRCICA” kafedrasida*

*II bosqich tayanch doktoranti,*

*Toshkent islom instituti*

*“Hadis va Islom tarxi fanlari”*

*kafedrasida o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Imom Voqidiyning ilmiy merosi, Mag‘oziy ilmida mavqe‘lari.*

**Kalif so‘zlar:** *Muhammad ibn Umar Voqidiy, fiqh, mag‘oziy, tarix, siyar va nasab ilmi, rivoyatlar, ma‘naviyat va turli ilmlar.*

Voqidiy o‘zining “al-Mag‘oziy” asarida Rosululloh sollollohu alayhi vasallamning barcha g‘azot va sariyyalari hamda ularning tafsilotlarini jamlagan va Nabiy sollollohu alayhi vasallamning Madinaga kelishini zikr qilish bilan boshlab, Usoma ibn Zayd roziyallohu anhuning sariyyasi va qo‘shin yurishidan oldin Rosululloh sollollohu alayhi vasallamning vafoti haqidagi xabarlarini zikr qilish bilan kitobni nihoyalagan.

Kitobning tuzilmasiga qaraydigan bo‘lsak, muallif kitobni yigirma beshta shayxni o‘zida jamlagan jam‘iy isnod bilan boshlagan so‘ngra, qo‘shin amiri va hodisa sodir bo‘lgan joyning nomi kabi hodisaga aloqador ba‘zi ma‘lumotlarni zikr qilish bilan birga voqea-hodisalarning nomlari borasidagi mundarijani ham keltirib o‘tgan.

Voqidiy asarda Rosulullohning o‘zi qatnashgan g‘azotlar va ularda sodir bo‘lgan janglarni birma-bir keltirib o‘tgan. Shuningdek, Rosululloh sollollohu alayhi vasallam Madinadan chiqqan vaqtda unga xalifa qilib qoldirgan kishilarning ismlari va g‘azotlardagi u zotning shiorlarini zikr qilib o‘tgan<sup>7</sup>.

Ushbu ma‘lumotlardan so‘ng hodisalar haqidagi rivoyatlarni batafsil keltirib o‘tadi. Shular qatorida Rosululloh yuborgan ilk sariyya, ya‘ni, Hamza roziyallohu anhuning sariyyasi so‘ngra, Ubayda ibn Horis roziyallohu anhuning sariyyasi haqidagi rivoyatlarni zikr qilib, “Katta Badr” g‘azotigacha yetib kelgan<sup>8</sup>.

<sup>7</sup> Dr. Abdulaziz ibn Sulaymon ibn Nosir Salumiy. Voqidiy va kitobuhu al-Mag‘oziy. – Madinai Munavvara: Madina islom universiteti nashriyoti, 1425/2004. – J. I. – B.8.

<sup>8</sup> Dr. Abdulaziz ibn Sulaymon ibn Nosir Salumiy. Voqidiy va kitobuhu al-Mag‘oziy. – Madinai Munavvara: Madina islom universiteti nashriyoti, 1425/2004. – J. I. – B.9-19.



Voqidiy “Katta Badr” g‘azoti haqida ko‘p so‘z yuritganligi sababli bu rivoyatlar asarning 19-sahifadan 174-sahifagacha bo‘lgan qismini egallagan.

So‘ngra Badr voqeasi ortidan Ibn Afakning o‘ldirilish sariyyasi, Qaynqo g‘azoti, Saviq g‘azoti kabi bir nechta hodisalarni zikr qilib, gap Uhud g‘azotigacha yetib kelgan. Uhud g‘azoti haqidagi rivoyatlar asarning 199-sahifadan 333-sahifagacha bo‘lgan qismini egallagan<sup>9</sup>.

So‘ngra Hamro al-asad g‘azoti, Abu Salama ibn Abdulasadning Qutnga qilgan sariyyasi, Bi‘r Ma‘una g‘azoti kabi Uhuddan keyin sodir bo‘lgan voqealarni keltirib o‘tgan<sup>10</sup>. Bu boradagi ma‘lumotlarni keltirib, Xandaq g‘azotining tafsilotigacha yetib kelgan. Bu ma‘lumotlar asarning 440-sahifasidan 496-sahifasigacha bo‘lgan qismini egallagan.

Xandaq g‘azotidan so‘ng Qurayza g‘azoti, Abdulloh ibn Unays roziyallohu anhunging Sufyon Huzaliyga qarshi sariyyasi, Qarto g‘azoti, Ibn Lahyon g‘azoti kabi ba‘zi voqealarga ham to‘xtalib, Hudaybiyya g‘azotigacha yetib kelgan. Bu ma‘lumotlar asarning 571-sahifasidan 633-sahifasigacha bo‘lgan qismini egallagan. So‘ngra asarning 633-sahifasidan 721-sahifasigacha bo‘lgan qismida Xaybar g‘azoti va unda kechgan hodisalar haqida to‘xtalib o‘tgan.

Xaybar va Fadak haqidagi ma‘lumotlar ortidan Umar ibn Xattob roziyallohu anhunging Turbaga yurishi, Abu Bakr roziyallohu anhunging Najdga yurishi, Bashir ibn Sa‘d roziyallohu anhunging Fadakga yurishi, G‘olib ibn Abdulloh roziyallohu anhunging Mayfa‘aga yurishi haqidagi rivoyatlarni keltirib o‘tgan. Shu asnoda Qaziyya g‘azotiga yetib so‘zini yakunlagan<sup>11</sup>. Bu ma‘lumotlar asarning 731-sahifadan 741-sahifagacha bo‘lgan qismini o‘z ichiga olgan. Buning ortidan Ibn Abulavjo roziyallohu anhunging Banu Sulaymga yurishi, Amr ibn Os roziyallohu anhunging islomga kirishi, G‘olib ibn Abdulloh roziyallohu anhunging Kadidga yurishi, Ka‘b ibn Umayr roziyallohu anhunging Zatu Atlohga yurishi kabi ba‘zi hodisalarni keltirib o‘tgan. Shu asnoda Mu‘ta g‘azotiga yetib so‘zini yakunlagan. Bu ma‘lumotlar asarda 755-sahifadan 769-sahifagacha bo‘lgan qismidan joy olgan. Bundan so‘ng, Zat as-Salasil g‘azoti haqida so‘z yuritilib, bu mavzu asarning 79-

<sup>9</sup> Dr. Abdulaziz ibn Sulaymon ibn Nosir Salumiy. Voqidiy va kitobu al-Mag‘oziy. – Madinai Munavvara: Madina islom universiteti nashriyoti, 1425/2004. – J. I. – B.174,176,181.

<sup>10</sup> Dr. Abdulaziz ibn Sulaymon ibn Nosir Salumiy. Voqidiy va kitobu al-Mag‘oziy. – Madinai Munavvara: Madina islom universiteti nashriyoti, 1425/2004. – J. I. – B.334,340,346.

<sup>11</sup> Dr. Abdulaziz ibn Sulaymon ibn Nosir Salumiy. Voqidiy va kitobu al-Mag‘oziy. – Madinai Munavvara: Madina islom universiteti nashriyoti, 1425/2004. – J. I. I. – B.722,723,726.



sahifasidan 774-sahifagacha bo'lgan qismini egallagan. Bu g'azot haqida so'z yuritgach, ortidan Abu Ubayda ibn Jarroh roziyallohu anhu qo'mondonlik qilgan Xabt sariyyasi hamda Abu Qatoda ibn Rib'iy Ansoriy qo'mondonlik qilgan Xazira sariyyasiga ham to'xtalib o'tgan<sup>12</sup>.

So'ngra Fath g'azoti va unga tegishli hodislar haqidagi ma'lumotlarni keltirgan. Bu ma'lumotlar asarning 780-sahifadan 884-sahifagacha bo'lgan qismini egallagan. Bundan so'ng, Hunayn g'azoti haqidagi rivoyatlarni keltirib o'tgan. Bu rivoyatlar 885-sahifadan 922-sahifagacha bo'lgan qismni egallagan. So'ngra, Toif g'azotiga to'xtalib o'tgan. Bu ma'lumotlar 922-sahifadan 973-sahifagacha egallagan.

Bularning ortidan Rosululloh sollollohu alayhi vasallamning sadaqa yig'uvchilarni yuborishlari, Qutba ibn Omir roziyallohu anhuning Xas'amga yurishi, Zahhok ibn Sufyon roziyallohu anhuning Banu Kilobga qilgan yurishi, Alqama Mudlijyning Shaiyba tomon yurishi haqida zikr qilib o'tgan. Shunday qilib, Tabuk g'azotiga yetib so'zini yakunlagan. Bu rivoyatlar asarda 979-sahifadan 1076-sahifagacha bo'lgan qismini egallagan.

So'ngra 9/630-yilda Abu Bakr Siddiq roziyallohu anhuning haj qilishi, Ali ibn Abu Tolib roziyallohu anhuning Yamanga yurishi hamda yig'ilgan sadaqalar haqidagi rivoyatlarni zikr qilib o'tgan.

Bundan so'ng, 1077-sahifadan 1116-sahifagacha bo'lgan qismda Vidolashuv hajining rivoyatlarini keltirib o'tgan. So'ngra Usoma ibn Zayd roziyallohu anhuning Mu'taga qarshi qilgan g'azoti haqida so'z yuritib, asarga yakun yasagan.

Mehribon va rahmli Alloh nomi bilan!

Albatta, Voqidiyning “al-Mag'oziy” asari nabaviy siyrat borasidagi asosiy manbalardan biri deya e'tirof etiladi. Bu quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. Asar muallifining mag'oziy va siyarni (janglarni) bayon qilish borasidagi mavqei. Zero bu ikkisini bayon qilishda ushbu asardan foydalanmasdan iloj yo'q. Bu asar mag'oziy va siyar borasida asosdir<sup>13</sup>;

2. Ushbu asar siyrat borasida yozilgan asarlarning muqaddam deya e'tiborga olinadi. Bu asar Ibn Is'hoqning “as-Siyrat” asaridan keyin bizgacha yetib kelgan ikkinchi manbadir;

<sup>12</sup> Dr. Abdulaziz ibn Sulaymon ibn Nosir Salumiy. Voqidiy va kitabuhu al-Mag'oziy. – Madinai Munavvara: Madina islom universiteti nashriyoti, 1425/2004. – J. I I . – B.774,777.

<sup>13</sup> Dr. Abdulaziz Salumiy. Voqidiy va kitabuhu al-mag'oziy. – Madinai munavvara: Maktabat al-malik Fahd, 1425/2004. – J. I I . – B.189.



3. Nabaviy siyrat borasidagi rivoyatlarni o'rganish borasidagi Voqidiyning o'ziga xos uslubi bu kitobning qiymatini oshirgan. Misol qilib keltiradigan bo'lsak, u biror hodisa haqidagi xabarni o'sha hodisa kim tomonidan sodir qilingan bo'lsa yoki kimlarning ichida sodir bo'lgan bo'lsa, ularning o'zidan rivoyat qilishga harakat qiladi. Shuningdek, ba'zida u masala borasida bir nechta qavllarni keltiradi va ular o'rtasini tarjih qiladi yoki tarjih qilmasdan, faqat qavllarning o'zini keltirish bilan cheklanadi<sup>14</sup>;

4. U o'z asarida keltirgan har bir g'azot va siyratga doir hodisaning sodir bo'lish zamonini daqiq uslubda keltiradi<sup>15</sup>. Ibn Kasir: “Voqidiyda aksari tahrir qilingan tahrir mavjud. Chunki u ushbu fanning kibor imomlaridandir” deya keltirib o'tadi<sup>16</sup>;

5. Voqidiy hodisa sodir bo'lgan joylarni umumiy tarzda sifatlab keltirishi. Misol tariqasida u Rosululloh sollollohu alayhi vasallam g'azotlarida yurgan yo'llarini sifatlab keltirgan<sup>17</sup>. Uning uslublaridan yana biri hodisa sodir bo'lgan joyga guvoh bo'lish edi;

6. Ibn Is'hoqning “as-Siyrat” asarida keltirilmagan ba'zi ma'lumotlar Voqidiyning asarida mavjudligi. Ibn Kasir bu borada: “Voqidiyda ko'plab go'zal ziyodaliklar mavjuddir” deya keltirib o'tadi<sup>18</sup>;

7. Voqidiy sanadni zikr qilish orqali o'zi keltirayotgan predmetni sinchiklab o'rganishi. Bu xabarlarni keltirishdagi zamonaviy madrasa uslubidir;

8. Hodisalarni o'ta mohirlik bilan keltirishi. Uning bu uslubiga Ibn Kasir Amr ibn Os roziyallohu anhunung islomga kirishi haqidagi xabarni Voqidiyning tariqidan zikr qilib keltirgani so'ngra: “Shuningdek, bu xabarni Muhammad ibn Is'hoq Yazid ibn Abu Habibdan rivoyat qilgan. Biroq Voqidiyning keltirishi sodda va afzalroq<sup>19</sup>” deya keltirganligi ham misol bo'ladi.

Shu va shu kabi ishlar tufayli Voqidiyning “al-Mag'oziy” asari Ibn Sa'd, Tobaray, Bayhaqiy va Ibn Kasir kabi mag'oziy va siyar imomlari nazdida muhim manbalardan biriga aylana oldi. Ushbu asarning asosiy manbalardan ekanligi sababli bu imomlar ushbu asardan naql qilar va hodisalarga ushbu asardagi rivoyatlardan dalillar keltirishar edi.

<sup>14</sup> Dr. Abdulaziz Salumiy. Voqidiy va kitobuhu al-mag'oziy. – Madinai munavvara: Maktabat al-malik Fahd, 1425/2004. – J. I I . – B.397.

<sup>15</sup> Dr. Abdulaziz Salumiy. Voqidiy va kitobuhu al-mag'oziy. – Madinai munavvara: Maktabat al-malik Fahd, 1425/2004. – J. I I . – B.189.

<sup>16</sup> Ibn Kasir. Al-bidaya van nihaya. – Bayrut/Livan: Dar al-maorif, 1980. – J. I I I . – B. 234.

<sup>17</sup> Dr. Abdulaziz Salumiy. Voqidiy va kitobuhu al-mag'oziy. – Madinai munavvara: Maktabat al-malik Fahd, 1425/2004. – J. I I . – B.726.

<sup>18</sup> Ibn Kasir. Al-bidaya van nihaya. – Bayrut/Livan: Dar al-maorif, 1980. – J. I I I . – B. 234.

<sup>19</sup> Ibn Kasir. Al-bidaya van nihaya. – Bayrut/Livan: Dar al-maorif, 1980. – J. I V . – B. 237.



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR;**

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ислом ҳамкорлик ташкилоти Ташқи ишлар вазирлар кенгаши 43-сессиясининг очилиш маросимидаги нутқи // “Халқ сўзи” газетаси, 2016 йил 19 октябрь.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Туркий давлатлар ташкилоти давлат раҳбарлари кенгаши йиғилишидаги нутқи // “Халқ сўзи” газетаси, 2022 йил 12 ноябрь.
3. V.M.Zaporozhets. The Seljuks. – Hannover: the European Academy of Natural Sciences e.V. , 2012. – 321 p.
4. Ibn Asir. الكامل في التاريخ (Al-Komil fit-tarix), VIII juz. – Beirut-Lebanon: Dar Al-Kotob Al-Ilmiyah, 2003. – 532 b.
5. Imom al-Hofiz Abul Fado Ismoil ibn Kasir al-Qurayshiy ad-Dimashqiy. البداية و النهاية (Al-Bidayatu van-nihaya). al-Giza (Misr): Hajr, 1998.
6. Maqriziy. السلوك لمعرفة دول الملوك (As-Suluk lima'rifati duvalil-muluk), I juz. Beirut-Lebanon: Dar al-kotob al-ilmiyah, 1997. – 566 b.
7. Shamsuddin Muhammad bin Ahmad Usmon az-Zahabiy. سير أعلام النبلاء (Siyar a'lamu an-nubala), XXIII juz. Beirut-Lebanon: Baytul-afkor ad-davliyya. 2004.
8. Ahmed bin Mahmud. Selçuk-Name, 1-2.cilt. – İstanbul: Kervankibatçılık basın sanayiiveticaret A.Ş., 1977. – 202 s.
9. Ali Sevim. İbnül-Kalânîsinin Zeylû tarih-i Dimaşk adlı eserinde Selçuklularla ilgili bilgiler // Türk tarih belgeleri dergisi. Cilt: XXIX, Sayı: 33. 2008. – S. 1-42
10. Muharrem Kesik. Sultan Alp Arslan'ın Liderlik Vasıfları // İnsan ve Toplum Bilimleri Dergisi, Sayı4. 2014. – S. 43-52.
11. Muhammed Kemaloğlu. XI.-XIII. yüzyıl Türkiye Selçuklu devletinde eğitim-öğretim (medreseler) // Akademik Tarih ve Düşünce Dergisi. Cilt:2, Sayı:5. 2015. – S. 62-79.
12. Prof. Dr. Muharrem Kesik. Selçuklular tarihi. – İstanbul: İstanbul Üniversitesi Açık ve uzaktan eğitim fakültesi, 2010. – 374 s
13. Prof. Dr. Faruk Sümer. Oğuzlar. – Ankara: Ankara Üniversitesi basımevi, 1972. – 574 s.
14. Prof. Dr. Osman Turan. Selçuklular Tarihi ve Türk-İslam Medeniyeti. – İstanbul: Turan neşriyat yurdu, 1969. – 492 s.



**ИНТЕРНЕТ САЙТЛАР:**

1. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нодир қўлёзмалар бўлими сайти <http://nodir.natlib.uz:8095/uz-Cyrl-UZ>

2. Ўзбекистон тарихий ва илмий-адабий манбалар сайти <http://ziyonet.uz/>

